

# **Iqtisodiy kompetentlik asosida xodimning korxonadagi faoliyatni yuritishi**

**Lutfullaeva Nigora**

Xalqaro Nordik universiteti

Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, p.f.n.

E-mail: lutfullaeva.nigoraxon@gmail.com

Tel: (90) 962-61-00

Bugungi kunda mamlakatimizda aholi turmush farovonligi oshib, xarid imkoniyatlari o'sib bormoqda. Ayniqsa, yoshlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni alohida ta'kidlash zarur. Yoshlardagi iqtisodiy tafakkur – ularning iqtisodiy jihatdan voqea-hodisalarni tahlil qilishi, unga baho berish va qaror qabul qilish; kishidagi iqtisodiy ong, iqtisodiy qarashlar, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy bilim va tushunchalar, iqtisodiy xatti-harakat majmuidan iborat bo'lib, uning asosida iqtisodiy madaniyat paydo bo'ladi.

Iqtisodiy bilimlarga egalik yoshlar tomonidan iqtisodiy ishlab chiqarish jamiyat hayotining asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligini chuqur anglanishiga imkon berish bilan birga ularda mavjud moddiy va ma'naviy ashyolar, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish, ularni ko'paytirish to'g'risida g'amxo'rlik qilish, jamiyat iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish hamda oila xo'jaligini oqilona yuritish borasidagi dastlabki ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga imkon beradi. Bunda shaxsiy qobiliyat iqtisodiy faoliyatni bajarishda iqtisodiy kompetensiyaga tayanadi. Iqtisodiy kompetensiya esa faoliyat jarayonida takomillashib boradi.

Iqtisodiy kompetensiya – yoshlarda iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga, tejamkorlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik hamda tadbirkorlikni shakllantiradi. Iqtisodiy kompetentlikning yuzaga kelishida shaxsning jamiyatning zamonaviy iqtisodiy rivojlanishini tahlil qila olishi, o'zining bilim va ko'nikmalarini o'zining mehnat faoliyatida qo'llay olishi, shuningdek korxonada ishchilarining iqtisodiy madaniyatini shakllantirishga qodir va tayyor bo'lishi zarurdir.

Iqtisodiy kompetentlik - jamiyat rivojlanishiga mos iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalarni doimiy egallab borish qobiliyati bo'lib, turli iqtisodiy vaziyatlarda ularning amaliyotga maqsadli tatbiqi bilan bog'liq shaxsiy rivojlanib boruvchi sifatlar yig'indisidir.

Ye.E.Ovakimyan<sup>1</sup> iqtisodiy kompetentlik tushunchasini turli ijtimoiy vaziyatlarda iqtisodiy asoslangan qarorlar qabul qilishga imkon beradigan

---

<sup>1</sup> Овакимян Е.Е. Развитие экономической компетентности студентов вузов. Автореферат. - Челябинск, 2010.

iqtisodiy bilimlar, ko'nikmalar majmui, deb ta'riflagan va ilmiy izlanishlari asosida iqtisodiy kompetentlik tarkibiga quyidagi komponentlarni kiritgan: kognitiv - iqtisodiy bilimlar tizimi, jamiyatda iqtisodiy funksiyalarni bajarish bo'yicha g'oyalar; hissiy-qadriyatlar - iqtisodiy sohadagi muhim qadriyatlar tizimi, faoliyat motivatsiyasi, iqtisodiy his va qat'iy ishonch; faoliyatli-kreativ - iqtisodiy bilimlarni qo'llash tajribasi, iqtisodiy maqsadga erishish ko'nikmalari;

A.Yu.Misailovning<sup>2</sup> fikricha esa, iqtisodiy kompetentlikning tarkibi bir biriga bog'lik bo'lgan quyidagi komponentlardan iborat:

- motivatsion - jamlangan va yetarlicha barqaror ehtiyojlar tizimi, iqtisodiy faoliyat uchun muhim sabablar, turli iqtisodiy kompetensiyalarga ega bo'lishga qiziqish bilan tavsiflanuvchi;

- kognitiv - asosiy iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi tizim (iqtisodiyot, iqtisodiy qonunlar, talab, taklif, mahsulot), iqtisodiy nazariyalar, tushunchalar, modellar, davlatning iqtisodiy siyosatini olib borishga yondashuvlar, iqtisodiyotning xalqaro muammolari; kasbiy faoliyatda iqtisodiyot asoslari (qonunlar, korxonaning iqtisodiy faoliyati usullari, iqtisodiy rejalashtirish, nazorat va audit va boshqalar).

- amaliy - iqtisodiy muammolar va vaziyatlarni hal qilish, iqtisodiy ko'nikma va qobiliyatlar kombinatsiyasiga asoslangan iqtisodiy hisob-kitoblarni olib borish, biznes rejalarni tuzish, buxgalteriya hisobini yuritish, turli xil iqtisodiy vaziyatlarda kasbiy muammolarga iqtisodiy yechim tanlashni amalga oshirish, iqtisodiy faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish, fuqarolik iqtisodiy xatti-harakatlariga rioya qilish va boshqalar.

- shaxsiy - bir qator muhim iqtisodiy fazilatlaridan iborat: faollik, mustaqillik, ijodkorlik, samaradorlik, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik.

Iqtisodiyotning istalgan soha yoki tarmog'iga mutaxassislarni tayyorlashda nafaqat iqtisodiy bilim berish, balki uni yuksak ma'naviyatli etib tarbiyalash, hamkasblari, jamiyat va umuman atrof-muhitga munosabatini to'g'ri shakllantirish, milliy mentalitetimizga xos qadriyatlar va an'analarni singdirish ham muhimdir. Iqtisodiyotdagi ijobiy o'zgarish va yuksalishlar har bir fuqaroning iqtisodiy madaniyati bilan bog'liq. Iqtisodiy madaniyat insonning umumiy madaniyati, biznes va xo'jalik yuritish faoliyati, qadriyatlar va intilishlarining bir qismidir. Ushbu tushuncha jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Har bir shaxs

---

<sup>2</sup> Мисаилов А.Ю. Компьютерное сопровождение формирования экономической компетентности у студентов учреждений среднего профессионального образования. Автореферат. - М., 2013.

hayotiy manfaat va qiziqishlarini ro'yobga chiqarish maqsadida iqtisodiyot sohasidagi amaliy xarakatlarni amalga oshiradi va bu jarayonda iqtisodiy xulq-atvor ko'zga tashlanadi. Mazmun jihatidan iqtisodiy madaniyat iqtisodiy harakatdagi, iqtisodiyot sub'ektlari bo'lmish insonlarning o'zaro munosabat madaniyati — o'zini tutish qoida va me'yorlaridir. Bu munosabatlar iqtisodiy tizimning rivojlanish tabiati, xarakteri, ziddiyatlari va qonuniyatlariga ko'ra aniqlanadi. Oddiyroq tilda aytganda, iqtisodiy madaniyat bozor tamoyillariga rioya etishdir. Uning zamirida o'z kasbiga layoqat, bilimdonlik, omilkorlik, mas'uliyat va xalollik yotadi.

Iqtisodiy munosabatlar rang-barang bo'lgani kabi iqtisodiy madaniyat ham turli ko'rinish va shaklda namoyon bo'ladi. U pul topish, uni sarflash va jamg'arish kabi jarayonlarda aks etadi.

Mehnat qilish ham eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga xissa qo'shishdir. Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo'lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo'naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog'liq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak. Lekin har bir shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanishiga majbur qilgan psixologik omillar, sabablar muhim bo'lib, bu faoliyat motivlaridir.

Faoliyat jarayonida insonlar sa'y-harakati, tanlovi sabablarini tadqiq qilgan taniqli olimlardan biri Maks Veber (1864-1926) bo'lib, u o'zining iqtisodiy-ijtimoiy hayotga liberal yondashishi bilan ajralib turadi. M.Veber sotsiologiya asoschilaridan biri bo'lib, inson faoliyatini 4 tipga bo'ladi.

Birinchi harakat muayyan maqsadga aniq, samarali yo'naltirilgan tip (zweckrationell). Mavjud vosita, mablag'lar kutilgan maqsadga yetishish uchun ishlatiladi. Ikkinchisi, qadriyatlar nuqtai nazaridan ratsional (wertrationell), uchinchisi, muayyan ehtiros va emotsiyalar (affektrationell), to'rtinchisi, takrorlanuvchi an'analar va urf-odatlar nuqtai nazaridan ratsional (traditionell) tiplardir. Ularning barchasi bir butun bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini aks ettiradi.

Birinchi tipga ajratilgan faoliyat oqilona, samaralidir. U ongli va aniq qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, shaxs shu maqsadga yetaklovchi vositalardan ham foydalanadi.

Harakatning ikkinchi tipi shu ma'noda oqilonaki, unga harakat qilayotgan shaxsning axloqiy yoki diniy qarashlari yoki nimani qadrlashi nuqtai

nazaridan yondashiladi. U ko‘pincha yozilmagan qonun-qoidalardan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, cho‘kayotgan kemani uning kapitani xammadan keyin oxirida tark etadi.

Uchinchi tip harakat g‘ayritabiiy rag‘batga bo‘lgan nazoratsiz reaksiya tarzida yoki asabiy tarzda yuz berib, oqilona harakatlar bilan o‘ylanmay qilingan harakatlar orasida turadi.

To‘rtinchi tip harakat urf-odat, an‘analar asosida o‘ylamay qilingan harakatlar bo‘lib, ularni oqilona harakat darajasiga kiritib bo‘lmaydi.

Har qanday davrning axloqi harakatning ma‘lum bir qismini tashkil etadi va u iqtisodiy ratsional hayot tarzi shakllanishiga, yuzaga kelishiga to‘siq bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, inson harakatining murakkab motivlari ehtiyojlarda ifodalanadi. Aynan ehtiyojlar ularning sa‘y-harakati, xulq-atvori va tanlovini belgilaydi<sup>3</sup>.

Mehnat qilish va pul topish madaniyati iqtisodiy madaniyatning muhim tarkibiy qismidir. Mehnat madaniyati — egallab turgan lavozim xususiyati va maqomidan qat‘iy nazar o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishdir. Barcha toifalarga mansub ishchilar ana shu madaniyat tashuvchilari sifatida namoyon bo‘ladilar. Mehnat madaniyati talabi — har bir xodim mehnat intizomiga og‘ishmay amal qilgan holda samarali ishlashidir. U o‘zi va mehnat jamoasi manfaatlari yo‘lida bahamjihatlikda samarali ishlashni, mehnat axloqiga oid yozilgan va yozilmagan qoidalarga rioya etishni, mehnat munosabatlarini ichki qoidalar va mehnatga oid qonunchilikka muvofiq tarzda tashkil etishni nazarda tutadi.

Mehnat qilish va ish xaqi olish madaniyati o‘z asosida yagonadir, chunki mehnat hamma vaqt pul ishlab topish manbai hisoblanadi. Ish xaqi xodimlarning aksariyatida daromadning asosiy shakli hisoblanadi.

Ish xaqi mehnatga berilgan baho sifatida ishlab topilgan daromadni o‘zida ifoda etadi. Pul ishlab topish madaniyati xodim qancha ishlab topishga qodir bo‘lsa, shuncha pul ishlab topishi mumkinligini, bu orqali erkinlikni nazarda tutadi. Madaniyat ish xaqi cheklanishi, uning kamsitilishini istisno etadi. Madaniyatda asosiysi - ish xaqining puldagi daromadlar mehnat samaradorligi darajasiga mos bo‘lishini nazarda tutuvchi taqsimot bozor qonuni talablariga muvofiqligidir. Bu qonun ob‘ektiv bo‘lib, daromadlar madaniyati qarama-qarshi emas, balki unga muvofiq tarzda shakllanadi. Odamlar turli resurslarga ega bo‘ladi va ulardan turlicha foydalanadi, shuning uchun ham turli daromad oladilar. Madaniyat buni alohida qayd etadi. Madaniyat ishlab pul topish

---

<sup>3</sup> Д.Тожибоева .Иқтисодий хулқ-атворнинг психологик ва педагогик асослари ва инсон мотивациясини асословчи назариялар. Замонавий таълим / Современное образование 2014, 1

asnosida daromadning xaqqoniy va qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritilishini nazarda tutadi, ya’ni puldagi daromad ishlab topilishi, boshqacha aytganda, ko‘ngilli mehnat, erkin ishga joylashish va muqobil tanlov natijasi bo‘lishi lozim.